



XORIY TAJRIBASIDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING QO'LLANILISHI

Jo'ramurodov Dilshod O'tkirovich

Workplace: Responsible Officer at Tashkent City Department of Justice

Email: dilshodjoramurodov07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364099>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2025 yil

Ma'qullandi: 05-May 2025 yil

Nashr qilindi: 08-May 2025 yil

KEY WORDS

huquqiy tartibga solish, sun'iy
intellekt, huquqiy tizim,
avtomatlashtirish, axloqiy
tomonlar, metodologiya.

ABSTRACT

Maqolada xorij tajribasida huquqiy tartibga solishda sun'iy intellekt vositalarining qo'llanilishi tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy tizimlarda, jumladan, qonunlar va reglamentlarni ishlab chiqish, huquqiy xatoliklarni aniqlash, sud ishlarini avtomatlashtirish kabi sohalarida qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada dunyoning turli mamlakatlarida sun'iy intellekt vositalarining muvaffaqiyatli integratsiyasi va bu jarayonning huquqiy va axloqiy tomonlari tahlil etiladi. Ushbu ilmiy ish, sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy tartibga solish sohasida samarali qo'llanishi uchun zarur metodologik yondashuvlarni va tavsiyalarni taqdim etadi.

XXI asrda texnologik taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu texnologiyaning tez sur'atlarda rivojlanishi va hayotning deyarli barcha jabhalarida amaliy qo'llanilayotganligi uni nafaqat texnik yoki iqtisodiy, balki huquqiy sohada ham chuqur tahlil qilishni zaruratga aylantirmoqda. Sun'iy intellekt bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalasi ayniqsa murakkabdir. Mutaxassislar va siyosatshunoslar ushbu texnologiyaning qaysi jabhalariga huquqiy mexanizmlar tatbiq etilishi lozimligi borasida turlicha yondashuvlarga ega. Natijada, dunyo mamlakatlarida sun'iy intellekt bilan bog'liq yondashuvlar, tartibga solish mezonlari va huquqiy infratuzilmalar keskin farqlanmoqda. Bu esa global miqyosda umumiy yondashuv ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining keng tarqalishi sababli, unga oid munosabatlarni huquqiy asosda tartibga solish zaruriyati ortib bormoqda. Bu nafaqat milliy qonunchilik darajasida, balki xalqaro huquqiy normalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifadir. Shu nuqtai nazardan, turli davlatlarning sun'iy intellektga oid qonunchilik tajribalarini o'rganish, mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va kelishilgan yondashuv asosida xalqaro standartlarni ishlab chiqish zamon talabi bo'lib bormoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sun'iy intellektga oid masalalarni huquqiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, nazariy izlanishlar olib borish hamda ushbu sohada maxsus o'quv kurslari va ilmiy dasturlarni ishlab chiqish zaruratga aylangan. Bu esa kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining inson huquqlari, huquqiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlar bilan

uyg'unlashgan holda rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Turli mamlakatlarning tarixiy taraqqiyot yo'li, siyosiy tizimi, madaniy qadriyatlari va huquqiy an'analaridagi farqlar sun'iy intellekt sohasidagi milliy qonunchilikning xilma-xilligiga olib kelgan. Har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, axloqiy-me'yoriy yondashuvlari va texnologik salohiyatiga tayangan holda sun'iy intellektni tartibga solishda o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Bu esa sun'iy intellekt sohasida yagona, universal huquqiy mexanizm mavjud emasligini ko'rsatadi.

Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining global xarakterga ega ekanligini inobatga olgan holda, uning salbiy oqibatlarining oldini olish, axloqiy va huquqiy muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro miqyosda umumiy tan olingan huquqiy qoidalarni shakllantirish dolzarb vazifadir. Mazkur masalada jahon hamjamiyatining har bir a'zosi ishtirok etadigan va ularning roziligi bilan belgilangan xalqaro normalar majmuini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro huquqiy tartibga solish sun'iy intellekt bozorining barcha ishtirokchilari uchun adolatli va shaffof "o'yin qoidalari"ni belgilash imkonini beradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, texnologik raqobatni sog'lomlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, texnologiyadan noto'g'ri yoki nomaqsadli foydalanish xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, ko'plab davlatlarning milliy qonunchilik tizimi xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashgan tarzda shakllanayotganini hisobga olsak, umumiy xalqaro standartlar milliy qonunchilikni takomillashtirish va moslashtirishda ham asosiy tayanch nuqtasiga aylanadi.

Shu bois, xalqaro darajada e'tirof etiladigan sun'iy intellekt bo'yicha asosiy huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish – global xavfsizlik, texnologik barqarorlik va inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa kelajakda barcha davlatlar tomonidan hisobga olinadigan va milliy qonunchilikka integratsiyalash mumkin bo'lgan yagona konseptual yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

2017-yilda qabul qilingan Asilomar sun'iy intellekt tamoyillari sun'iy intellekt texnologiyalarining barqaror, axloqiy va insoniyatga manfaatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy va axloqiy ko'rsatmalardan iboratdir. Quyida ularning asosiy jihatlari huquqiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi:

1. Tadqiqotning yo'nalishi: Sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar faqat texnik yutuqlarga emas, balki jamiyat uchun real manfaat keltiradigan tizimlar yaratishga yo'naltirilishi lozim. Bu yondashuv sun'iy intellektning inson huquqlari va jamoaviy farovonlikka moslashuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Multidissiplinar investitsiyalar¹: Sun'iy intellekt bo'yicha moliyalashtirish faqat texnologik tadqiqotlar bilan cheklanmasdan, kompyuter fanlari, huquq, iqtisod, axloqiy va ijtimoiy fanlarni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Masalan, tizimlarning ishonchligi, avtomatlashtirishning ijtimoiy ta'siri, huquqiy moslashuvchanlik va sun'iy intellekt tizimlarining qadriyatga asoslangan maqomi bu yo'nalishda hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy muammolardandir.

3. Sun'iy intellekt va siyosat o'rtasidagi muloqot: Siyosatchilar va tadqiqotchilar o'rtasida doimiy, ochiq va asosli muloqot yo'lga qo'yilishi, davlat siyosati va ilmiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ Multidissiplinar investitsiyalar- bu bir necha sohalarni birlashtirib amalga oshiriladigan investitsion faoliyat.

4. Hamkorlik madaniyati: Sun'iy intellekt ishlab chiquvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, shaffoflik va axborot almashinuvi madaniyati qo'llab-quvvatlanishi zarur. Bu sun'iy intellekt xavfsizligi va foydaliligi bo'yicha kollektiv mas'uliyatni kuchaytiradi.

5. Xavfsizlik standartlari bo'yicha muvofiqlik: Sun'iy intellekt ishlab chiquvchi jamoalar xavfsizlik me'yorlari buzilishini oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishlari lozim.

6. Nosozlikka ochiqlik: Sun'iy intellekt tizimi tomonidan keltirilgan zararlar sababini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lishi — fuqarolik javobgarligi va sudga murojaat qilish huquqini ta'minlashda hal qiluvchi omildir.

7. Sud tizimi uchun shaffoflik: Avtonom sun'iy intellekt tizimlarining sud qarorlariga ta'siri aniq, asosli va nazorat ostida bo'lishi kerak.

8. Mas'uliyat: Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqayotgan shaxslar uning noto'g'ri ishlatilishi yoki zararli oqibatlari uchun axloqiy va yuridik jihatdan javobgar bo'lishi lozim.

9. Qadriyatga moslashuvchanlik: Avtonom sun'iy intellekt tizimlarining xatti-harakatlari va maqsadlari inson qadriyatlariga muvofiq bo'lishi shart.

10. Inson qadr-qimmatiga hurmat: Har qanday sun'iy intellekt tizimi inson huquqlari, erkinliklari va madaniy xilma-xillikni e'tiborga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

11. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: Sun'iy intellekt tizimlarining ma'lumotlar ustidan ishlov berish imkoniyati mavjud bo'lsa, foydalanuvchilarning maxfiylik huquqlari kafolatlanishi zarur.

12. Erkinlik va daxlsizlikka hurmat: Sun'iy intellekt texnologiyalari insonlarning shaxsiy hayotiga aralashmasligi va ularning ijtimoiy erkinliklariga tahdid solmasligi kerak.

13. Umumiy manfaat: Sun'iy intellekt texnologiyalaridan keladigan foyda butun jamiyatga taqsimlanishi, ya'ni ularning natijalari ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanishi zarur.

14. Birgalikda farovonlik: Sun'iy intellekt natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yutuqlar ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

15. Inson nazorati: Sun'iy intellekt tizimlariga qaror qabul qilish vakolati berilgan bo'lsa ham, ularning ustidan inson tomonidan nazorat bo'lishi ta'minlanishi zarur.

16. Tizim barqarorligi va ijtimoiy jarayonlar: Sun'iy intellekt bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z faoliyatida jamiyat salomatligi va barqarorligiga hurmat bilan yondashishlari, unga salbiy ta'sir ko'rsatmasliklari lozim.

17. Avtonom o'ldiruvchi qurollar va qurollanish poygasi: Sun'iy intellekt asosidagi avtonom qurollar insoniyat xavfsizligiga tahdid soluvchi texnologiyalar qatoriga kiradi. Shu sababli, xalqaro huquq doirasida ushbu sohada qurollanish poygasini oldini olish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuv insoniyatni noinsoniy urush vositalaridan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

18. Imkoniyatlarni kam baholash va noto'g'ri taxminlar xavfi: Sun'iy intellektning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlariga nisbatan ortiqcha yoki kam baholovchi taxminlar ilgari surilishi ehtiyotkorlik bilan muomala qilinishi kerak. Ilmiy konsensus mavjud bo'lmagan holatlarda noto'g'ri qarorlar siyosiy yoki iqtisodiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

19. Sun'iy intellektning global inqilobiy potentsiali: Sun'iy intellekt texnologiyalari Yer sayyorasidagi hayotning tub mohiyatini o'zgartirish salohiyatiga ega. Shu sababli, ularning yaratilishi, sinovdan o'tkazilishi va tarqatilishi ehtiyotkorlik bilan, tegishli axloqiy va huquqiy me'yorlarga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

20. Xavflarni baholash va boshqarish: Sun'iy intellekt tizimlaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global va mahalliy xavflar, xususan halokatli yoki hayotga xavf soluvchi texnologiyalar, oldindan aniqlanib, mos xavfsizlik protokollari asosida kamaytirilishi va nazorat ostiga olinishi lozim.

21. Rekursiv o'z-o'zini takomillashtiruvchi tizimlar: O'zini qayta optimallashtira oladigan va algoritmik murakkabligi doimiy o'sib boruvchi sun'iy intellekt tizimlari qat'iy va mustahkam huquqiy-nazorat mexanizmlariga bo'ysundirilishi zarur. Bu turdagi tizimlar odatiy boshqaruv yondashuvlari doirasidan chiqib ketishi mumkinligi bois, xalqaro huquqiy standartlarga asoslangan tizimli yondashuv talab etiladi.

22. Superintellekt va umumiy manfaat: Superintellekt texnologiyalari faqat bitta davlat yoki tashkilotning manfaatlarini emas, balki umumiy insoniyat qadriyatlariga muvofiq tarzda yaratilishi va boshqarilishi kerak. Bu holat sun'iy intellekt texnologiyalarining monopoliyalashtirilishini oldini olib, xalqaro adolat prinsipiga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt sohasidagi global muvofiqlashtirish jarayonlari doirasida, YUNESKO 2019-yilda sun'iy intellekt etikasi bo'yicha ekspert guruhini tashkil etdi. Ushbu tashabbus 2021-yil noyabr oyida YUNESKoga a'zo davlatlar tomonidan rasman tasdiqlangan global axloqiy tamoyillar bilan yakunlandi. Bu hujjat:

- Sun'iy intellekt texnologiyalarining insoniyatga xizmat qilishi zarurligini e'tirof etadi;
- Barcha davlatlar bu texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi;
- Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining axloqiy jihatdan xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ham tan oladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining tezkor rivojlanishi xalqaro hamjamiyat oldiga bu sohani global miqyosda samarali tartibga solish zaruriyatini qo'yimoqda. Mazkur ehtiyojga javoban ilk yirik qadam sifatida 2021 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi — YUNESKO tomonidan "Sun'iy intellektning axloqiy jihatlari bo'yicha tavsiya" hujjati qabul qilindi. Bu hujjat sun'iy intellektni mustaqil ravishda axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, bashorat qilish, rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aqlli texnologik tizim sifatida ta'riflaydi. Tavsiyada inson huquqlari, inson sha'nini hurmat qilish, tenglik, va barqaror rivojlanish kabi universal qadriyatlarga asoslangan yondashuv taklif etiladi.

Shunga qaramay, xalqaro huquqning an'anaviy manbasi hisoblangan ko'p tomonlama shartnomalar, konvensiyalar yoki universal majburiy qoidalarni o'z ichiga olgan hujjatlar hali ishlab chiqilmagan. Sun'iy intellektni tartibga soluvchi global darajadagi majburiy normativ hujjatlarning mavjud emasligi xalqaro huquqda "yumshoq huquq" (soft law) vositalariga murojaat qilish zaruratini tug'dirmoqda. Mazkur hujjatlar bevosita majburiy bo'lmagan bo'lsa-da, ularning siyosiy va axloqiy kuchi ularni xalqaro siyosat va huquqiy tartibga solish jarayonida muhim vosita sifatida qarashga asos bo'ladi.

Bu boradagi ilk yondashuvlardan biri 2000 yil 22 iyulda "Katta Sakkizlik" davlatlari tomonidan qabul qilingan Okinava Xartiyasi hisoblanadi. Unda global axborot jamiyatini barpo etish, raqamli tafovutni bartaraf etish va xalqaro hamkorlik asosida tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu hujjat, garchi sun'iy intellektni bevosita nazarda tutmasa-da, uning kelgusidagi rivojlanishi uchun zarur raqamli muhit va infratuzilma tamoyillarini belgilab beradi.

2021 yilgacha sun'iy intellekt sohasidagi ilk hukumatlararo normativ hujjat sifatida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kengashining 2019 yil 22 maydagi sun'iy intellekt bo'yicha tavsiyasi alohida e'tiborga loyiq. Bu tavsiya beshta asosiy prinsip va milliy davlatlar uchun beshta siyosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Unda quyidagi asosiy tamoyillar ilgari surilgan:

Sun'iy intellekt insoniyat va atrof-muhitga foyda keltirishi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi lozim;

Sun'iy intellekt tizimlari inson huquqlari, qonun ustuvorligi, demokratik qadriyatlar va xilma-xillikni hurmat qilgan holda yaratilishi kerak;

Sun'iy intellekt qarorlarini insonlar tushunishi va ularga e'tiroz bildirish imkoniyati bo'lishi kerak (shaffoflik va hisobotlilik tamoyili);

Tizimlar ishonchli va xavfsiz ishlashi zarur, har doim ehtimoliy xavflar baholanib, boshqarilishi kerak;

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiquvchi va joriy etuvchi sub'yektlar huquqiy va axloqiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi lozim.

Bundan tashqari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kengashi tavsiyalarida hukumatlar uchun quyidagicha siyosiy chora-tadbirlar taklif etilgan: davlat va xususiy sektorlar tomonidan sun'iy intellekt innovatsiyalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, sun'iy intellekt bo'yicha kadrlar tayyorlash, mehnat bozorida sun'iy intellektga mos moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish, hamda davlatlararo hamkorlikni chuqurlashtirish.

Mazkur tavsiyaning muhim jihatlaridan biri — 2020 yilda ishga tushirilgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kengashi "AI Policy Observatory" platformasidir. Bu platforma orqali dunyo mamlakatlarining sun'iy intellekt sohasidagi siyosati, huquqiy tajribasi va standartlari to'g'risida ochiq ma'lumotlar taqdim etiladi, bu esa xalqaro normalarning uyg'unlashuvi jarayonini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektni xalqaro darajada huquqiy tartibga solish hozircha "yumshoq huquq" vositalari orqali amalga oshirilmoqda. YUNESKO va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, ular xalqaro me'yorlar, tamoyillar va siyosiy yo'nalishlar shakllanishiga kuchli turtki bermoqda. Kelajakda universal majburiy xalqaro shartnoma yoki konvensiya ishlab chiqilishi uchun hozirgi yumshoq huquq yondashuvlari normativ asos bo'lib xizmat qiladi.

2019-yil 9-iyun kuni G20 a'zolari tomonidan qabul qilingan "Savdo va raqamli iqtisodiyot bo'yicha bayonot" xalqaro miqyosda sun'iy intellektni tartibga solish yo'lida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur hujjatga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga oid tavsiyalar ilova qilingan bo'lib, G20 davlatlari ushbu tamoyillarni qo'llab-quvvatlashlarini rasman bildirgan. Bayonot sun'iy intellektga oid global yondashuvda birinchi huquqiy va axloqiy mezonlar to'plamini belgilagan muhim xalqaro siyosiy hujjat sifatida e'tirof etiladi. Bayonotda ilgari surilgan asosiy g'oyalardan biri – texnologik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan raqamli transformatsiyani inson salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan shaklda yo'naltirishdir.

Shu nuqtai nazardan, 6-bandda barqaror va innovatsion global jamiyatni shakllantirish uchun xalqaro hamkorlik zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa, sun'iy intellektni rivojlantirishda xalqaro huquqiy mexanizmlar, masalan, transmilliy normalar va konvensiyalar ishlab chiqish

ehtiyojini oshiradi. 7-band esa ijtimoiy tenglik va adolatga urg'u berib, raqamli iqtisodiyotning ijobiy ta'sirini ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar hamda ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga yetkazish zarurligini ko'rsatadi. Bu band, zamonaviy raqamli siyosatga inson huquqlari mezonlari nuqtai nazaridan yondashish lozimligini bildiradi. 11-bandda esa raqamli jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish uchun barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida umumiy qadriyatlar, jumladan, tenglik, adolat, shaffoflik va hisobdorlik kabi tamoyillarning mavjudligi ta'kidlanadi. Bunday tamoyillar sun'iy intellektning axloqiy me'yorlari bo'yicha xalqaro normalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bayonotning 19-bandida antropotsentrizm, ya'ni inson manfaatlarini ustuvor qo'yish zarurati qayd etilgan. Bu sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri, yangi ijtimoiy tafovutlar va xavflarni minimallashtirish yo'lidagi huquqiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruratiga ishora qiladi. 20-bandda esa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikka rioya qilish texnologik taraqqiyot sharoitida ham ortda qolmasligi lozimligi uqtiriladi. Bu G20 doirasida axborot xavfsizligi va ma'lumotlar huquqi sohasida xalqaro standartlar ishlab chiqilishini talab etadi. 23-band global boshqaruv konsepsiyasini ilgari suradi: raqamli inqilob sharoitida huquqiy aniqlikni saqlagan holda innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratish, ya'ni texnologik yutuqlar va normativ-huquqiy asoslar uyg'unligini ta'minlash talab qilinadi. Shuningdek, xalqaro siyosiy va huquqiy institutlarning hamkorlikda faoliyat yuritishi, sun'iy intellektga oid siyosatni milliy darajada muvofiqlashtirish zarurligini bildiradi. 24-bandda esa G20 davlatlari o'rtasida ilg'or amaliyot almashinuvini rag'batlantirish hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali sun'iy intellekt sohasida tajriba va bilimlar aylanishini jadallashtirish zarurligi qayd etiladi.

Umuman olganda, G20 bayonoti sun'iy intellekt sohasida xalqaro yondashuvlar bir yo'nalishga tushayotganining dalilidir. Ayniqsa, 2019-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va G20 doirasida qabul qilingan axloqiy tamoyillar 2020-yildan boshlab xalqaro darajadagi huquqiy tashabbuslarning asosiy tayanchiga aylana boshladi. Bu esa, sun'iy intellekt sohasini inson huquqlari, xavfsizlik va barqarorlik mezonlari asosida tartibga solishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. 2021-yilga kelib, sun'iy intellektning inson huquqlariga ta'sirini baholash orqali xavfga mos tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqila boshladi.

Xalqaro huquqiy tartibga solish masalasi ko'plab hududiy, iqtisodiy va siyosiy holatlarga ta'sir o'tkazadi. Xususan, mintaqaviy huquqning sun'iy intellektga taalluqli bo'limi jahonning ayrim qismlarida, masalan, Yevropada ancha rivojlanib bormoqda. Yevropada bu masala, ayniqsa, Evropa Ittifoqi va Evropa Kengashi darajasidagi tartibga solish tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Yevropa Kengashining tuzilishi va faoliyati, shuningdek, Evropa Ittifoqidan farq qilishi muhimdir. Evropa Ittifoqi – bu Evropa Kengashining 27 a'zo davlatidan iborat bo'lgan birlashma bo'lsa, Evropa Kengashi o'z ichiga 46 ta davlatni olgan xalqaro tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

Evropa Kengashida sun'iy intellektni mintaqaviy miqyosda tartibga solish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Bu masalada maxsus tashkil etilgan Sun'iy intellekt bo'yicha qo'mita juda muhim rol o'ynamoqda. Qo'mita tomonidan tayyorlangan "Sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solish to'risida" hisobotda sun'iy intellektni ishlab chiqish va qo'llash uchun huquqiy bazani yaratish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar o'rganilmoqda. Hisobotda, shuningdek, YUNESKO va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlikda o'tkazilgan maslahatlashuvlar ham ta'kidlanadi.

Evropa Kengashi so'nggi yillarda sun'iy intellektni tartibga solish borasida bir qator hujjatlarni qabul qildi. Masalan, 2018-yil 3-dekabrda Evropa axloqiy Xartiyasi, 2019-yil 13-fevraldagi algoritmik jarayonlarni manipulyatsiya qilish imkoniyatlari to'risidagi deklaratsiya, va 2020-yil 8-apreldagi algoritmik tizimlarning inson huquqlariga ta'siri bo'yicha tavsiyalar kabi hujjatlar bularning eng muhimlaridandir. Ushbu hujjatlar, o'z navbatida, davlatlar hukumatlariga sun'iy intellekt tizimlarining jamiyatdagi ta'sirini o'rganish, inson huquqlarini himoya qilish va algoritmik tizimlarni ijtimoiy hayotga integratsiyalashish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. 2021-yil 17-martda esa Vazirlar qo'mitasi tomonidan ijtimoiy himoya sohasida sun'iy intellektdan foydalangan holda qarorlar qabul qilish xavfi to'risidagi deklaratsiya qabul qilindi.

Shuningdek, 2017-yilda Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasi tomonidan "Texnologik yaqinlashuv, sun'iy intellekt va inson huquqlari" tavsiyalari ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalarda sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda inson huquqlariga e'tibor qaratish zarurligi qayd etilgan. 1-bandda esa nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, axborot texnologiyalari va kognitiv fanlarning yaqinlashuvi inson huquqlari va ularni amalga oshirish usullariga ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Bu hujjatlar Yevropa Kengashi va Evropa Ittifoqining sun'iy intellektni mintaqaviy va xalqaro darajada tartibga solishga qaratilgan aniq siyosatlarni ishlab chiqishdagi muhim ishlarini ko'rsatadi. Evropa miqyosida amalga oshirilgan tartibga solish faoliyati, global darajada sun'iy intellektning axloqiy va huquqiy jihatlarini belgilashda samarali platforma yaratadi. Bu esa xalqaro huquqiy me'yorlarning rivojlanishi va sun'iy intellektning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini boshqarishdagi yondashuvlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Yevropa Kengashi tomonidan ilgari surilgan tamoyillardan biri – biologiya va tibbiyot sohasidagi yutuqlarning amaliyotga tatbiq etilishi munosabati bilan inson huquqlari va qadr-qimmatini muhofaza qilish zarurati bo'lib, bu 1997-yildagi Inson huquqlari va biotibbiyot konvensiyasining 2-moddasida ifodalangan: inson manfaatlari va farovonligi har qanday ilmiy yoki jamiyat manfaatlaridan ustun turadi. Sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha hozirgi tashabbuslar Yevropa Kengashining rasmiy veb-saytida muntazam e'lon qilinadi. 2021-yil iyul oyida Kengash huzuridagi Sun'iy intellekt bo'yicha maxsus qo'mita tomonidan asosiy ishtirokchi davlatlar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijasida xalqaro darajada majburiy xususiyatga ega hujjat – ko'p tomonlama konvensiya ishlab chiqildi. Qo'mita ushbu hujjatga ta'sirni baholash, xavflarni tasniflash hamda sun'iy intellektni rivojlantirishga oid tamoyillarni kiritishni tavsiya qilgan.

Mazkur konvensiya sun'iy intellektning barcha amaliy qo'llanilish sohaslariga taalluqli bo'lishi lozim, biroq asosiy e'tibor huquqni muhofaza qilish, adliya va davlat boshqaruvi tizimlarida sun'iy intellektni ishlatishdan kelib chiqadigan xavflarni boshqarishga qaratilishi kerak. Soliq, ta'lim, ijtimoiy ta'minot kabi boshqa sohalarda esa sun'iy intellekt tizimlari sanoat standartlari asosida tartibga solinishi lozim.

Qo'mita, inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligiga bevosita tahdid soluvchi sun'iy intellekt ilovalariga – xususan, harbiy texnologiyalar uchun ishlab chiqilgan tizimlarga – qisman yoki to'liq moratoriy yoki qonuniy taqiq qo'yish zarurligini bildirdi. Bundan tashqari, iqtisodiy kuch va shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratning markazlashuvi tufayli onlayn platformalar alohida tartibga solinishi zarur, chunki bu holat demokratik jarayonlarga jiddiy

zarar yetkazadi. Shartnoma loyihasi ustidagi ishlar 2022-yilda boshlangan bo'lib, 2023-yil noyabr oyigacha muzokaralar yakunlanishi, 2024-yilda esa hujjatni ratifikatsiya qilish rejalashtirilgan.

Evropa Kengashi tashabbuslari bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqi darajasida ham mintaqaviy tartibga solish hujjatlari ishlab chiqilmoqda. Biroq, Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida sun'iy intellekt sohasidagi milliy qonunchilik hali shakllanish bosqichida bo'lgani bois, Yevropa Ittifoqining tartibga solish faoliyati, avvalo, milliy normativ-huquqiy bazani shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, Yevropa Ittifoqi doirasidagi huquqiy mexanizmlar milliy huquqiy tizimlar bilan uyg'unlashgan holda keyingi bosqichda ishlab chiqilishi mantiqan asosli hisoblanadi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlatlarni ushbu sohani strategik yo'nalish sifatida belgilashga undadi. 2020 yil boshlariga kelib, dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida sun'iy intellekt rivojiga qaratilgan milliy strategiyalar qabul qilingan bo'lib, ularga Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Kanada, Isroil va Birlashgan Arab Amirliklari kiradi. Ushbu jarayonning izchil ravishda kengayib borayotgani global miqyosda sun'iy intellekt bo'yicha tartibga solish, axloqiy mezonlar va huquqiy infratuzilmaning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi. 2016 yilda mamlakat Fan, axborot texnologiyalari va kelajakni rejalashtirish vazirligi tomonidan "Intellektual axborot jamiyatiga tayyorgarlik ko'rishning o'rta va uzoq muddatli bosh rejasi: To'rtinchi sanoat inqilobini boshqarish" nomli 70 sahifalik hisobot ishlab chiqildi. Ushbu strategik hujjat SI, Internet narsalar (IoT), bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data) va mobil platformalarning uyg'unlashgan rivojiga asoslangan. Huquqiy nuqtai nazardan, hisobotda davlat-xususiy sheriklik asosida intellektual jamiyat qurishga oid asosiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bunda davlatning roli qonuniy va axloqiy asoslarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

2019-yil 17-dekabrda e'lon qilingan yangi milliy strategiya esa tartibga solishda liberal yondashuvni ilgari suradi. Jumladan, sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tartibga solishni kamaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlovni kengaytirish, xususan, PIM (xotiradagi ma'lumotlarni shu joyida qayta ishlovchi dastur) texnologiyalariga asoslangan sun'iy intellekt chiplarini ishlab chiqish kabi ustuvorliklar belgilangan. Shuningdek, 2020 yildan boshlab davlat amaldorlari va harbiy xizmatchilarga sun'iy intellekt bo'yicha malaka talab etilishi qonuniy asosda joriy etilgan, umumta'lim maktablarida esa sun'iy intellekt fanining majburiyligi ta'minlangan. Hukumat 2030 yilgacha 2000 ta "aqli" zavod qurishni maqsad qilgan.

Yaponiya yondashuvi. 2017 yilda tashkil etilgan Sun'iy intellekt texnologiyalari strategiyasi kengashi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada texnologik rivojlanish yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan. 2019-yil mart oyida esa hukumat tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalarining insonga yo'naltirilgan tamoyillari tasdiqlandi. Shu yilning iyunida yangilangan "AI Strategy 2019" konsepsiyasi e'lon qilinib, unda sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish, fuqarolar va davlat idoralari o'rtasidagi sun'iy intellekt salohiyatini birlashtirishga oid chora-tadbirlar belgilangan.

Singapur tajribasi esa maqsadga yo'naltirilgan va sektorlararo yondashuvga asoslanadi. 2019-yil kuzida e'lon qilingan milliy strategiya 2030 yilgacha mo'ljallangan bo'lib, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, chegara nazorati va infratuzilmalarni o'z ichiga olgan beshta ustuvor

yo'nalishni qamrab oladi. Ayniqsa, immigratsiya tizimining to'liq avtomatlashtirilishi, ta'lim sohasida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari joriy etilishi hamda davlat infratuzilmasida sun'iy intellektga asoslangan sensor texnologiyalarning keng tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Bu strategiya doirasida sun'iy intellekt bo'yicha Milliy agentlik tashkil etilgan bo'lib, u ilmiy, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Global miqyosda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'siri ortib borayotgan bir paytda, rivojlangan davlatlar ushbu jarayonni strategik va huquqiy boshqaruv ostiga olishga harakat qilmoqda. Shu jumladan, Kanada va Buyuk Britaniya tomonidan ishlab chiqilgan milliy strategiyalar sun'iy intellekt sohasidagi ilk kompleks yondashuvlar sifatida e'tirof etiladi.

Kanada tajribasi. 2017 yilda rasmiy ravishda ishga tushirilgan "Pan-Kanada sun'iy intellekt strategiyasi" sun'iy intellekt sohasida milliy siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur strategiya Kanadaning ilg'or texnologik taraqqiyotga tayangan barqaror siyosat olib borishini ko'rsatdi. Unda quyidagi asosiy maqsadlar ilgari surilgan:

- sun'iy intellekt bo'yicha malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlar sonini ko'paytirish;
- ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish orqali mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- sun'iy intellekt sohasida iqtisodiy, siyosiy va axloqiy tartibga solish bo'yicha global yetakchilikni ta'minlash.

Strategiyaning ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, u nafaqat texnologik rivojlanishni, balki sun'iy intellektni axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan muvozanatlashni ko'zlaydi. Bu Kanada hukumati tomonidan texnologik suverenitet va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi barqarorlikni saqlashga qaratilgan yondashuv sifatida talqin qilinadi.

Buyuk Britaniya yondashuvi. Britaniya hukumati tomonidan 2017 yilda e'lon qilingan "Sanoat strategiyasi: Oq kitob"da sun'iy intellekt sohasidagi yetakchilik mamlakatning asosiy to'rtta strategik maqsadidan biri sifatida belgilandi. Mazkur hujjat asosida ishlab chiqilgan va 2018-yil aprel oyida rasman e'lon qilingan "Sun'iy intellekt sektori kelishuvi" (AI Sector Deal) milliy siyosat darajasida muhim o'rin egallaydi. Unda quyidagi tashkiliy va huquqiy choralar nazarda tutilgan:

hukumat siyosatini amalga oshirishda sun'iy intellekt sohasida yetakchilikni mustahkamlash;

davlat siyosati ijrosini monitoring qilish;

sanoat vakillarini jalb etish;

mustaqil maslahat beruvchi organ – Sun'iy intellekt kengashini tashkil etish.

Britaniya hukumati strategiyani keng ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda ishlab chiqqan bo'lib, u beshta asosiy ustuvorlikni qamrab oladi:

1. Innovatsiyalar – dunyodagi eng ilg'or iqtisodiyotga asos bo'lish;
2. Inson resurslari – yuqori daromadli, barqaror ish o'rinlari yaratish;
3. Infratuzilma – zamonaviy texnologiyalar asosidagi infratuzilma shakllantirish;
4. Biznes muhiti – tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish;
5. Yashash muhitlari – butun mamlakat bo'ylab jozibador va gullab-yashnayotgan jamoalarni rivojlantirish.

Axloqiy va huquqiy masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyatli, shaffof va inson huquqlariga zid bo'lmagan tarzda foydalanish

uchun Ma'lumot etikasi va innovatsiyalar markazi (Centre for Data Ethics and Innovation) tashkil etildi. Ushbu markaz sun'iy intellekt sohasidagi davlat siyosati va tartibga solish faoliyatiga metodologik asoslar ishlab chiqish, ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy daxlsizlik va algoritmik adolat masalalarini tartibga solishda muhim vosita sifatida faoliyat yuritmoqda.

2019-yil 10-iyun kuni hukumat tomonidan e'lon qilingan "Sun'iy intellekt etikasi va xavfsizligini tushunish" bo'yicha yo'riqnoma davlat sektorida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda axloqiy yondashuvning zarurligini e'tirof etdi. Ushbu qo'llanma Alan Turing instituti tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanib, sun'iy intellekt tizimlarini loyihalash va amaliyotda qo'llashda halollik, hisobdorlik, shaffoflik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish kabi umumqabul qilingan axloqiy qadriyatlarni ilgari surdi.

2020-yilda nashr etilgan Milliy Ma'lumotlar Strategiyasi Buyuk Britaniyaning ma'lumotlar iqtisodiyotida global yetakchilikni egallashiga xizmat qiluvchi tamal toshi bo'ldi. Strategiyada ma'lumotlarning erkin va xavfsiz aylanishi, raqamli ishonchni mustahkamlash va innovatsion tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash markaziy o'rinni egalladi.

2021-yil 6-yanvarda hukumat tomonidan AI bo'yicha kengash tayyorlagan yo'l xaritasi e'lon qilindi. Bu hujjat sun'iy intellekt sohasidagi siyosiy ustuvorliklarni aniqlashtirishga xizmat qilgan. Shu yili sentabr oyida ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikka o'zgartirishlar bo'yicha jamoatchilik muhokamasi boshlangan bo'lib, u quyidagi asosiy o'zgarishlarni nazarda tutgan:

spam xabarlar va qo'ng'iroqlarga qarshi choralarning kuchaytirilishi;

tadqiqot va innovatsiyalar uchun ma'lumotlar oqimini soddalashtirish;

sun'iy intellekt orqali qabul qilinadigan qarorlar ustidan inson nazoratining ba'zi holatlarda bekor qilinishi;

algoritmik adolatsizlikka qarshi me'yoriy talablar joriy etilishi.

Bu yondashuv Yevropa Ittifoqi bilan Britaniya o'rtasidagi normativ tafovutlarni ham aks ettirgan bo'lib, o'zini sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha suveren davlat sifatida ko'rsatishga intilish sifatida talqin qilinadi.

Milliy sun'iy intellekt strategiyasi va xavfsizlik choralari. 2021-yil sentabr oyida nashr etilgan yangi Milliy sun'iy intellekt strategiyasi Buyuk Britaniyaning sun'iy intellekt sohasida innovatsiyalarni jadallashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sinergiyani kuchaytirish hamda global raqobatbardoshlikni oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Strategiya doirasida hukumat hali to'liq raqamlashtirilmagan tarmoqlarda (masalan, energetika, qishloq xo'jaligi) sun'iy intellekt salohiyatini kengaytirish uchun sarmoyalarni ko'paytirishni rejalashtirdi.

Sun'iy intellektning milliy xavfsizlik bilan bog'liqligini yorituvchi muhim huquqiy hujjatlardan biri - 2022-yil 4-yanvarda kuchga kirgan Milliy xavfsizlik va investitsiyalar to'g'risidagi qonun bo'ldi. Bu qonun Buyuk Britaniya hukumatiga strategik texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, robototexnika va boshqa ilg'or raqamli texnologiyalar bilan bog'liq tranzaksiyalarni nazorat qilish, shubhali investitsiyalarni tekshirish va muayyan bitimlarni milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholash imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv AQSh, Germaniya, Kanada va Avstraliya kabi davlatlar tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, Britaniyaning sun'iy intellekt sohasida suveren nazoratni saqlash siyosatini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va elektron resurslar:

1. Cardillo, A. (2025, March 4). How many companies use AI? (New Data). <https://explodingtopics.com/blog/companies-using-ai>
2. Deloitte. (2024, May 31). Over 18 million people in the UK have now used Generative AI. <https://www.deloitte.com/uk/en/about/press-room/over-eighteen-million-people-in-the-uk-have-now-used-generative-ai.html>
3. James Lau, 'Artificial Intelligence, Machine Learning, Technology and the Legal Profession- Perspective of an Asian Chief Legal Officer', International In-House Counsel Journal, 2019.
4. "Lex AI" platformasi yuzasidan ommaviy oferta <https://ai.lex.uz/terms>
5. Adliya vazirligi (2024, 23 dekabr). "LexAI" platformasi taqdimoti o'tkazildi. <https://adliya.uz/ru/posts/lexai-platformasi-taqdimoti-o%CA%BBtkazildi>

